

«O'zkimyosanoat» AJ



«Uzkimyosanoat» JSC

«Dehqonobod kaliy zavodi» AJ UZ-POTASH «Dehkanabad Potash Plant» JSC

O'zbekiston Respublikasi, 180405, Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumani,
DKZ Toshkent shahri, 100011, Navoiy ko'chasi, 38-uy
Dehkanabad district, 180405, Kashkadarya region, Republic of Uzbekistan

Tel/faks: +998 75 612 5005.
Tel/faks : +998 71 150 3259.
e-pochta: info@uz-potash.uz
website: www.uz-potash.uz

Sana 2022 yil «15» 12 № 01-18/3078

«O'zkimyosanoat» AJ
Boshqaruv raisi v.v.b.
Y.Korjikovga

«Dehqonobod kaliy zavodi» AJ Sizing 2022-yil 30-noyabrdagi 27-324-XDFU va 27-325-XDFU xabarnomalarga asosan jamiyatning 2022-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi yillik hisobotni hamda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash bo'yicha to'ldirilgan jadvallarni yubormoqda.

Ilova: Hisobot va jadvallar ____ varaqda.

Boshqaruv raisi v.b

R.Usarov

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJda korrupsiyaga qarshi kurash
tizimining 2022-yildagi faoliyati bo‘yicha

H I S O B O T

1) “Dehqonobod kaliy zavodi” AJda korrupsiyaga qarshi kurash tizimi faoliyatini tashkil etish borasida 2022-yil uchun rejalashtirilgan asosiy tadbirlarning ijrosi ta’minlandi. Hisobot davrida korrupsiyaga qarshi tizimni yaratish bo‘yicha ichki me’yoriy hujjatlarni tayyorlash borasida ishlar davom ettirildi. Xususan, “Dehqonobod kaliy zavodi” AJning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining strukturasi va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ma’suliyat va vakolatlarni tashkiliy funksional taqsimoti haqida Nizom (24.03.2022-yildagi №510) ishlab chiqildi.

Ushbu Nizom taqsimotidan kelib chiqib, kadrlar boshqarmasi Nizomi ishlab chiqilgan va unda korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi talablarini e’tiborga olgan holda qo‘shimcha ma’suliyat va vakolatlar belgilangan.

2) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha menejment tizimini ishchi xodimlar o‘rtasida targ‘ibotini kuchaytirish maqsadida jamiyatning korrupsiyaga qarshi siyosati va axloq kodeksi o‘zbek tiliga o‘girilib, odob-axloq kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilgan holda qayta ishlab chiqildi. Ko‘rsatilgan hujjatlar jamiyatning rasmiy veb-saytiga joylashtirildi.

Hisobot davrida ishlab chiqilgan ichki me’yoriy hujjatlarning talablarini ishchi xodimlarga yetkazish borasida ishlar tashkil etilgan. Elektron tarmoqqa joylashtirilgan xujjatlarning mazmun-mohiyati haqida umumiy yig‘ilishlarda tushuntirishlar olib borildi. Bundan tashqari “Komplayens” xizmati telegramm kanali tashkil etilib, jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar haqida ma’lumotlar muntazam ravishda joylashtirish yo‘lga qo‘yildi.

Shu bilan birga, tizimni amalga oshirishda jamiyat rahbariyati tomonidan yetakchilikning namoyon etilishini ta’minlash maqsadida hisobot davrida 2 marta, shuningdek, komplayens xizmati tomonidan 1 marta ommaviy axborot vositalar orqali chiqishlar qilinib, maqolalar chop ettirildi (“Dehqonobod ovozi” gazetasining 2022-yil apreldagi va “Qashqadaryo” gazetasining 2022-yil 8-dekabrda sonlari).

“Komplayens” xizmati tomonidan hisobot davrida jamiyatda xodimlarning xuquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, ularda korrupsiyaga nisbatan toqatsizlik prinsipini shakllantirish bo‘yicha bir qator o‘qitish tadbirlari amalga oshirildi. Jumladan, “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ rahbar va korrupsion risklar yuqori bo‘lgan lavozimlarda ishlovchi xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo‘yicha umumiy va maxsus o‘qitish, shuningdek, yangidan ishga qabul qilingan xodimlarini bilim va ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha 5 ta o‘quv guruhi (jami 75 nafar xodim) tashkil etilib, mashg‘ulotlar olib borildi. O‘qitilgan ishchi-xodimlar bilimlar darajasi bo‘yicha dastlabki test sinovlaridan o‘tkazildi. O‘qitilgan va sinovdan o‘tkazilgan ishchi-xodimlar soni umumiy ishchi-xodimlar sonining 3,6 foizini tashkil etdi.

Bundan tashqari, 3 nafar xodim ISO 37001:2016 xalqaro standarti bo‘yicha maxsus o‘quv kursida o‘qitildi.

3) Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tadbirlari 2022 yil uchun ilk bor amalga oshirilgan. Jami 30 ta biznes jarayonlar kesimida korrupsiyaviy xavf-xatarlar baholanib, 20 tasida yuqori, 7 tasida o‘rta va qolgan 3 tasida past darajadagi qoldiq tavakkallar darajasi aniqlangan. Korrupsiyaviy xavf-xaratalarni boshqarish maqsadida tegishli korrupsiyaga qarshi protseduralar ishlab chiqilib, amalga oshirib borildi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi PQ-5177-sonli va 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son qarorlari ijrosini ta’minlash, jamiyatga ishga qabul qilish va yuqori razryadli ish o‘rinlari (lavozim)ga munosib nomzodlarni adolatli va shaffof tanlashni tashkil etish maqsadida korxonaning tegishli buyrug‘i tasdiqlandi hamda “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi.

Boshqaruv raisi huzurida o‘tkazilgan yig‘ilishlarda 17 marta ommaviy profilaktik tushintirish ishlari o‘tkazildi. Shuningdek, “9-dekabr Halqaro korrupsiyaga qarshi kurashish” kuni munosabati bilan jamiyatda “Koppursiyaga qarshi kurashish menejment tizimi”ni joriy etish doirasida manfaatdor tuzilma rahbarlarining ishtirokida davra suhbatlari o‘tkazildi. Jamiyatda korrupsiyaga qarshi tizimning tadbiq etilishi bilan bog‘liq masalalar muhokamasi o‘tkazilib, aniq ijrochilar va ijro muddatlari ko‘rsatilgan holda navbatda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlar belgilandi, bu borada tarkibiy tuzilmalar rahbarlarining ma’suliyatini oshirish borasida umumiy profilaktik tushintirish ishlari olib borildi. Ommaviy axborot vositalarida, jamiyatning rasmiy veb-sayti va telegram kanallari orqali 24 ta, matbuot nashrlari orqali 3 ta jami 27 ta maqolalar e’lon qilindi. Shuningdek, jamiyatda “Koppursiyaga qarshi kurashish menejment tizimi”ni samaradorligi, korrupsion holatlar yuqori darajada saqlanib qolayotgan yo‘nalishlar haqida ishchi-xodimlar fikrini o‘rganish borasida jamiyatning telegramm ijtimoiy tarmog‘i orqali anonim so‘rovnoma natijalari, jamiyat rahbariyati huzurida muhokama qilinib, kelgusida ushbu tizimda faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilandi.

4) Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish doirasida quyidagilar amalga oshirildi:

Jumladan, korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan lavozimlarda ishlovchi 148 nafar ishchi-xodimlar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi mavjud yoki yo‘qligi borasida yillik deklaratsiyalar to‘ldirildi. Yil davomida jami bo‘lib, 7 ta manfaatlar to‘qnashuvi holatlari aniqlanib, tegishli tartibda hal etilgan. Ularning 5 tasi manfaatlar to‘qnashuvi holati yillik deklaratsiyalar to‘ldirish yoki manfaatlar to‘qnashuvining kelib chiqishi ehtimoli haqidagi xabarnomani to‘ldirish natijasida, 1 tasi buyruqlarni xujjatlashtirish jarayonida, 1 tasi esa komplayens xizmatining bevosita faoliyati davrida aniqlangan. Ulardan 6 nafari o‘zaro yaqin qarindoshlarining bevosita bo‘ysunuvida yoki nazoratida ishlashi bilan bog‘liq, 1 tasi esa jamiyat bilan shartnomaviy munosabatga kirishishda yuzaga kelgan. Yillik deklaratsiya to‘ldirganlarning soni jamiyatning umumiy ishchi-xodimlar sonining 7,33 foizini tashkil etdi. Hal etilgan 7 ta manfaatlar to‘qnashuvi holatining 1 tasida xodim ishdan bo‘shatilgan, 1 ta holatda xodimning moddiy javobgarligi bekor qilingan, 3 ta holatda xodimlar boshqa ishga o‘tkazilgan, 1-holatda manfaatlar to‘qnashuviga sabab bo‘lgan jamiyat rahbariyatining buyrug‘i bekor qilingan, qolgan 1 ta holatda xodim inventarizatsiya o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruh tarkibidan chiqarish orqali hal etilgan. Xususan,

Manfaatlar to‘qnashuvi holati aniqlangan boshqaruv raisining 1-o‘rinbosari “B.B” ning egallab turgan lavozimidan chetlashtirilganligi bilan holat bartaraf etilgan.

Manfaatlar to‘qnashuvi holati aniqlangan jamiyatning Tibbiy punkting katta feldsheri “A.A”ning moddiy javobgarligi bekor qilish orqali holat bartaraf etilgan.

Manfaatlar to‘qnashuvi holati aniqlangan jamiyatning TKM kurer haydovchisi “D.M” otasi “D.M”ning bo‘ysinuvidagi vazifasidan boshqa doimiy ishga o‘tkazish orqali holat bartaraf etilgan.

Manfaatlar to‘qnashuvi holati aniqlangan jamiyatning TKM bosh mexanigi “O.M” ni ukasi uning bo‘ysunuvidan boshqa doimiy ishga o‘tkazish orqali holat bartaraf etilgan.

Manfaatlar to'qnashuvi holati aniqlangan jamiyatning TKM mehnatni me'yorlash bo'yicha texnigi "M.Q" boshqa doimiy ishga o'tkazish orqali holat bartaraf etilgan.

Manfaatlar to'qnashuvi holati aniqlangan jamiyatning SR va BR bo'limi boshlig'i o'rinbosari "B.O"ni inventarizatsiya o'tkazish bo'yicha ishchi guruh tarkibidan chiqarish orqali holat bartaraf etilgan.

Jamiyat boshqaruv raisining transport va logistika masalalari bo'yicha o'rinbosari "J.B" ning yaqin qarindoshiga qarashli xususiy korxonaga jamiyat balansida bo'lgan foydalanilmay yotgan 0,5 ga yer maydonini vaqtincha foydalanishga berish haqidagi buyruqqa salbiy xulosa berilib, bekor qilindi.

5) Tuzilayotgan shartnomalar, amalga oshirilgan elektron xaridlar, o'tkazilgan tender va tanlovlar O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni va ichki meyoriy hujjatlar talablariga mosligi borasida monitoring olib borish yo'l qo'yilgan, ayrim xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tadbirlar olib borildi.

Hisobot davrida xizmatlar ko'rsatish bo'yicha jami 245 ta lot e'lon qilingan bulib, shundan 77 ta lot bo'yicha 37 142 172 367,52 so'mlik shartnomalar rasmiylashtirilgan.

Qolgan 168 ta 78 552 756 820,1 so'mlik lotning 126 ta lotga ishtirokchi qatnashmaganligi, 42 ta 20 909 999 344,00 so'mlik lot bo'yicha xaridlar asosan raqobat muhitini cheklash, ishtirokchilarning til biriktirishlari haqida asosli shubha uyg'otuvchi holatlar, ishtirokchi tashkilotlar tomonidan yetarlicha xujjatlarning taqdim qilinmaganligi, baholash mezonlariga amal qilmaslik haqida ma'lumotlar olingan va natijada o'tkazilgan tanlovlar bekor qilinib, qayta tanlovlar e'lon qilingan (*ushbu 42 ta bekor qilingan lotlar bo'yicha keyinchalik boshqa lotlar e'lon qilingan, shartnomalar rasmiylashtirilgan va bu 77 ta shartnomasi rasmiylashtirilgan lotlarning hisobiga kirgan*).

Shuningdek, hisobot davrida jamiyatda elektron do'konlar orqali 2109 ta 211 478 420 262,8 so'mlik shartnomalar rasmiylashtirilgan.

Shartnomalarning barchasiga "DKZ" AJ tashabbusi bilan korrupsiyaga qarshi bandlarning kiritilishi ta'minlangan, ushbu bandlarning kontragentlar tomonidan buzilishi bilan bog'liq holatlar bo'lmagan va shartnomalar bekor qilinmagan.

6) Kontragentlarni tekshirish va tegishli tartibda rasmiylashtirilishi bilan bog'liq muammolar bo'yicha shartnomaviy majburiyatlarni bajarish va g'aznachilik bo'limi ma'sul xodimlari bilan individual tartibda profilaktik suhbat o'tkazildi, kelgusida bunday tadbirlarni to'g'ri tashkil etish va hujjatlashtirish borasida amaliy tavsiyalar berildi. Jamiyatda kontragentlarni tekshirish dastlab xaridlarni amalga oshirish jarayonida barcha ishtirokchilar ma'lum talablar doirasida tekshirish yo'lga qo'yilgan bo'lib, ichki yo'riqnoma talablari doirasida so'rovnomalar to'ldirish orqali to'liq hajmda tekshirish va xulosalar tayyorlash tadbirlari qisman yo'lga qo'yilgan.

Hisobot davrida jami bo'lib 77 ta kontragentlar bilan shartnomalar tuzilgan bo'lib, shundan 27 ta kontragent tekshirilgan. Tekshirilgan kontragentlarning 20 tasiga ijobiy, 7 tasiga salbiy xulosalar berilgan. Tekshirishlar davomida manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'lik korrupsiyaviy xavf-xatarlar aniqlanmaganligi bois komplayens xizmatidan xulosalar olinmagan.

7) Ishga qabul qilish bilan bog'liq murojaatlarni mutasaddi xodimlardan iborat xay'at tomonidan ko'rib chiqilishi, xay'at tarkibida shuningdek komplayens xizmati xodimining ham ishtirok etishi yo'lga qo'yildi. Jumladan hisobot davrida ishga qabul qilingan 131 nafar xodimlarning 63 nafari komplayens xizmati bilan kelishilgan, 2 nafar rahbar xodimlar "O'zkimyosanoat" AJ Kuzatuv kengashining qarori bilan, 13 nafari "O'zkimyosanoat" AJning roziligi asosida kasanachilik bo'yicha, 61 nafari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrda 965-sonli qaroriga asosan, 16 nafari ochiq tanlov asosida, 7 nafari sertifikat asosida, 19 nafari esa mos mutaxassisliklar bo'yicha ishga qabul qilingan.

Hisobot davrida ishga nomzodlarni tekshirish tadbirlari mavjud yo'riqnomalar asosida amalga oshirilishi yo'lga qo'yilmadi.

8) Hisobot davrida jamiyatda 150 435 190 so'mlik sovg'alar berilgan, 143 360 948 so'mlik vakillik xarajatlari amalga oshirilgan, xarajatlarning hujjatlashtirilishi ichki meyoriy hujjatlar asosida tashkil qilinib, ular orasidan vakillik xarajatlari komplayens xizmati bilan kelishilgan. Sarflangan xarajatlar jamiyatning biznes rejasida nazarda tutilgan xarajatlardan oshib ketmagan.

Jamiyatning 2022-yil biznes rejasida 1 700 mln. so'm xomiylik xarajatlari nazarda tutilgan, amalda esa 5 128 mln. so'mlik xomiylik yordamlari ko'rsatilgan. Ko'rsatilgan barcha homiylik yordamlari "DKZ" AJ Kuzatuv kengashi bilan kelishilgan holda amalga oshirilgan.

9) Hisobot davrida jamiyatning korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari orqali murojaatlar kelib tushmagan. Jamiyatga boshqa kanallar orqali kelib tushgan 5 ta korrupsion mavzudagi murojaatlar komplayens xizmati tomonidan tegishli tartibda o'rganilgan, ushbu murojaatlar isbotini topmagan.

10) Hisobot davrida jamiyatning 2021-yil 19-fevraldagi №81-i/ch – sonli buyrug'ining 7-ilovasi bilan tasdiqlangan "Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlari"ga rioya etilishi ustidan monitoring va nazorat uslubiyatiga asosan jamiyatning amalda bo'lgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy hujjatlarining, MM va IH bo'limida mavjud bo'lgan ish haqi tabellarining, Kadrlar boshqarmasi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha ichki idoraviy xujjatlarni yuritilishi hamda xaridlarning amalga oshirilishi bilan bog'lik holatlar yuzasidan 4 ta monitoring o'tkazilgan.

11) Hisobot davrida jamiyatda 5 ta ichki xizmat tekshiruv tadbirlari olib borilgan bo'lib, ularning 4 tasi korrupsion holatlar bilan bog'liq bo'lgan. Jumladan:

Birinchi xizmat tekshiruvi: - Tuzilma rahbarlaridan birining xizmat xonasida aniqlangan 500 AQSH dollari miqdoridagi mablag'larning kim tomonidan qanday maqsadlarda tashlab ketilganligini o'rganish davomida ushbu holatga aloqador bo'lgan shaxslarni aniqlashning imkoniyati bo'lmagan. Xizmat tekshiruvi davomida korrupsion risklar yuqori bo'lgan lavozimlarda ishlovchi xodimlar o'rtasida umumiy profilaktik tushuntirish ishlari olib borilgan.

Ikkinchi xizmat tekshiruvi:- Jamiyatning 2022-yil 1-avgustdagi №465-i/ch – sonli buyrug'i bilan jamiyatning markaziy omboriga "East color" xususiy korxonasi keltirilgan bo'yoq mahsulotlarini keltirilishi yuzasidan xizmat tekshiruvi o'tkazilib, tekshiruv natijasida 202,5 mln. so'mlik 7340 kg bo'yoq mahsulotlari amaldagi xaridlar to'g'risidagi Qonunga zid ravishda, xujjatsiz qabul qilganligi aniqlanib, mahsulot qaytarilgan va ushbu holatga aloqador hodimlar Ismoilov Kamol, Badalov Alim, Normurodov Jasur va Bo'tayev Utkirlarga nisbatan intizomiy jazo chorasi qo'llanilgan.

Uchinchi xizmat tekshiruvi:- Jamiyatning 2022-yil 17-avgustdagi №503-i/ch – sonli buyrug'i bilan jamiyatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo'yicha oylik statistika hisobotlar tayyorlashda noto'g'ri ma'lumotlarning kiritilganligi holati yuzasidan xizmat tekshiruvi o'tkazilib, tekshiruv natijasida jamiyatning 2022-yil aprel, may va iyun oylaridagi ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo'yicha statistika hisobotlarga bila turib, noto'g'ri ko'rsatilganligi aniqlanib, Zaripov To'lqin va Xalto'rayev Sirojiddinlarga nisbatan ta'sir chorasi qo'llanilgan.

To'rtinchi xizmat tekshiruvi:- Jamiyatning 2022-yil 14-oktabrdagi №597-i/ch – sonli buyrug'i bilan ish haqi tabellarini turniket ma'lumotlariga solishtirish orqali o'rtadagi farqlarga oydinlik kiritish holati yuzasidan xizmat tekshiruvi o'tkazilib, tekshiruv natijasida jamiyatning 2022-yil iyun, iyul, avgust va sentabr oylaridagi ish haqi tabellariga asossiz qo'shimcha soatlar

qo'shib yozilganlik holati aniqlanib, jamiyatga yetkazilgan 182,1 mln. so'm miqdorida zarar ixtiyoriy ravishda qoplangan, shuning bilan birga, ushbu holatga aloqador 13 nafar aybdor hodimlarning 11 nafariga intizomiy jazo, 2 nafar rahbar hodimga nisbatan ta'sir chorasi qo'llanilgan.

Beshinchi xizmat tekshiruvi:- Dehqonobod tumani prokuraturasi xatiga asosan, sirka kislotasi ichish orqali o'z joniga qasd qilgan jamiyat ishchi xodimlaridan "N.Z" ning qadr-qimmatini kamsitish, tazyiq va bosim ko'rsatish holatlarini o'rganish tadbirlari olib borilgan, tekshirish davomida jamiyat rahbar xodimlari tomonidan bunday hatti-harakatlar sodir etilganligini tasdiqlovchi biror ma'lumot olinmadi va shu mazmundagi xulosa tayyorlanib Dehqonobod tuman prokuraturasiga yuborildi.

Bundan tashqari, komplayens xizmati tomonidan hisobot davrida ayrim hodimlar tomonidan sodir etilgan nojo'ya hatti-xarakatlar yuzasidan o'rganishlar olib borilib, xulosalar berilgan. Jumladan,

1) Jamiyatga qarashli bo'lgan markaziy omborni to'liq sanoqdan o'tkazish va moddiy javobgar shaxsni almashtirish borasida tadbirlar olib borilgan, natijada tovar-moddiy qiymatliklardan 5 800 000 so'mlik kamomad aniqlanib, surishtiruv natijasida ko'rsatilgan summani sobiq ombor mudiri "H.A" oylik ish haqidan ushlab qolish va o'ziga nisbatan intizomiy jazo chorasi qo'llash haqida xulosa qilindi.

2) Respublikaning turli viloyatlaridagi "Agrokimyohimoya" HAJ lar vakolatli ijara omborlarida o'g'itlar qoldig'ini inventarizatsiyadan o'tkazish orqali aniqlangan kamomadlarni undirish borasida yuborilgan materiallar asosida jamiyatning mutasaddi xodimlaridan iborat guruhlar qo'shimcha ravishda xizmat safarlariga yuborilib, joylardagi prokuratura organlari, vakolatli ijara omborlari bilan hamkorlikda tadbirlar olib borildi.

Hisobot davri boshida jamiyat bilan ijara omborlari o'rtasida mavjud bo'lgan jami 34 550 921 046 so'mlik debitor qarzdorlikdan jami 7663 618 412 (shu jumladan pul o'tkazish yo'li bilan 434 602 000 so'm, qarzni o'tkazish hisobiga 1 484 631 862 so'm, mol-mulkn olish hisobiga 5 744 384 550 so'm) so'mlik debitor qarzdorlik undirildi.

3) "PLATINUM AVTO DIZEL" xususiy korxonasi tomonidan jamiyatga yetkazib berilgan avto extiyot qismlarning qonuniyligini o'rganish jarayonida jamiyatga 160 mln. so'mlik moddiy zarar yetkazilganligi hamda 217,3 mln. so'mlik kamomad borligi haqida dastlabki xulosaga kelingan va kelgusida ichki xizmat tekshiruvi o'tkazish rejalashtirilgan.

4) Qo'riqlash xizmati qo'riqchisi Ko'charov Oybek tomonidan jamiyatning oz miqdordagi mulkini o'g'irlik yo'li bilan talon-taroj holati aniqlanib, to'plangan xujjatlar tuman IIBga taqdim etilgan. IIB Dehqonobod tuman sudining qarori bilan O.Ko'charov ma'muriy javobgarlikka tortilgan va u bilan jamiyat o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilingan. U tomonidan o'g'irlangan 1.053.000 so'mlik moddiy qiymatlik jamiyatga qaytarilgan.

5) Jamiyatning suv ta'minoti va kanalizatsiya sexida 2022-yil 20-oktabrdan 10-dekabrgacha bo'lgan holatda 24,4 mln. so'mlik 6225 m³ hajmda asossiz suv yo'qotilganligi aniqlanib, yetkazilgan zararni undirilishi lozimligi yuzasidan xulosa berilgan.

6) Kontragent tomonidan jamiyatga shartnomada nazarda tutilmagan, qiymati 510 mln. so'mlik 3 dona nasos agregati yetkazib berilganligi aniqlanib, tovar yetkazib beruvchiga qaytarilgan, tovarni shartnoma shartlariga nomuvofiq qabul qilib olgan 3 nafar hodimga nisbatan intizomiy jazo chorasi qo'llash yuzasidan jamiyat rahbariyatiga taklif kiritilgan.

12) Jamiyatda yil yakunida korrupsiyaga qarshi tizimning joriy holati tahlil qilinib, kelgusida alohida ko'rsatkichlarni yaxshilash borasida tadbirlar ishlab chiqildi. Jumladan,

- korrupsiyaga qarshi ichki meyoriy hujjatlarining targ'iboti bo'yicha tadbirlarni tasdiqlangan reja asosida davom ettirish. Jamiyat xodimlarini toifalarga bo'lgan holda birinchi navbatda korrupsion tavakkallar darajasi yuqori bo'lgan lavozimlarda ishlovchi xodimlarni korrupsiyaga qarshi o'qitish ishlarini jadallashtirish;
- jamiyatda ishga nomzodlarni mavjud yo'riqnoma talablari asosida to'laqonli tekshirish tadbirlarini amalga oshirish;
- jamiyat kontragentlarini tekshirish tadbirlarini to'laqonli ravishda amalga oshirish va xulosalar tayyorlash ishlarini sifat jihatidan yaxshilash;
- Korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo'lgan jarayonlarda monitoring nazorat va tashkiliy tadbirlarini kuchaytirish.

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ
Komplayens xizmati boshlig'i

“15” dekabr 2022-yil



O'.Meyliyev

Komplayens xizmatining 2022-yil faoliyati bo'yicha hisobot bilan tanishdim:

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ
Boshqaruv raisi v.b

“15” dekabr 2022-yil



R.Usarov